



SURXONDARYO VILOYATIDAN TOPILGAN MODDIY YODGORLIK TARIXI.

Mahmudova Bibizaynab Rustam qizi.

Andijon davlat univerisiteti Tarix fakulteti
arxivshunoslik yo`nalishi 2-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- November 2023 yil

Ma'qullandi: 14- November 2023 yil

Nashr qilindi: 17-November 2023 yil

KEY WORDS

Cho'lpon ota, Said Akramxon, memoriy yodgorlik, noyob topilma, Kattabog', Jarqo'ton, Sopollitepa.

ABSTRACT

Ushbu maqolada, O'zbekistonning tarixiy va moddiy yodgorliklarga boy bo'lgan Surxondaryo viloyatida joylashgan qadimiy yodgorliklardan biri "Cho'lpon ota" tarixi va uning kelib chiqishi, shu yodgorlikga oid qadimiy manbalar, qolaversa, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida yoritib berishga harakat qilindi. Xalqimizning yorqin o'tmishi hisoblangan "Cho'lpon ota" manzilgohi qariyb 500 yillik tarixga ega. Said Akramxon "Cho'lpon" nomli asarni o'qigan birinchi odam hisolanadi. Shu sabab uni hamma Cho'lpon ota deb chaqiradi. Ushbu shaxsning shajarasi payg'ambarimiz avlodlaridan biri bo'lgan Imom Husaynning shajarasiga tutashgan. Said Akramxon hayotida mo'jizalar bo'lgan. Vafotidan keyin vasiyatiga binoan bir tuyaga orilib tuya toxtagan joyga dafn qilingan. Ushbu hudud farzandlari tomonidan bir kechada gumbaz qilib ko'tarildi. 2002-yilda esa ushbu memoriy yodgorlik Kattabog' mahalla faollari tomonidan ikki gumbazli qilib qayta tiklandi.

Ma'naviyatimizning yorqin namunasi, aniqroq aytganda, ma'naviyatimiz ko'zgusi tarixiy qadamjolarimiz hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan madaniy, tarixiy obidalarga e'tibor kuchaydi tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. Karimov ayganlaridek "Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yhatiga kiritilgan. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodidan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalargacha bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent, Qo'qon, Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi va matonati bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan Surxondaryo viloyati ham tarixiy obidalarga juda boy. Zarautsoy,

Teshiktosh g'ori , Dalvarzintepa, Zartepa, Xolchayon, Ayritom, Qoratepa, Fayoztepa shu jumladan 2022 yil Sherobod tumani Tangidara nomli joyda Amir Temur g'oridan Neandertal odam davriga oid odam suyagi qoldiqlari topildi. Yoshlar ongida ma'naviyatni rivojlantirishda yozma manbalarining hamda moddiy manbalarining o'rni nihoyatda katta. Men yoshligimdan shu moddiy manbalarni ko'rib ulg'ayganman. Men asli Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida katta bo'lganman. Tarixga nazar soladigan bo'lsak hududimi Surxondaryoda ilk shahar xorobalari o'rganilgan. Masalan Sopollitepa manzilgohi Surxondaryo viloyatidagi Sherobod cho'lida Qaynarbuloqsoy hududidan topilgan. U Termiz shahridan 70 km shimoliy- g'arbida joylashgan. Bu manzilgoh Sherobod cho'lini o'zlashtirish jarayonida 1968-yilda L.I.Albaum tomonidan ro'yhatga olingan.Uning tadqiqot ishlari bilan 1969-1974- yillarda A.Asqarov shug'ullangan. Sopollitepa manzilgohiningumumiy maydoni 4ga. ga yaqin Sopollitepada hayot taxminan 200-250 yillar davom etgan. Keyinchalik uning aholisi yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida sharq tomon siljib, hozirgi Sherobod yaqinidagi Oqqo'rg'on qishlog'i hududiga ko'chib borganlar. Sopollitepaliklar asos solgan ilk shahar bu Jarqo'ton yodgorligidir. U Bo'stonliqsoyning chap sohilida joylashgan bo'lib, maydoni100 ga. ga teng. Jarqo'ton yodgorligini akademik arxeolog olim A.Asqarov tomonidan 1963 - 1964-yillarda o'rganilgan. Bu yerning aholisi kamida 500 yil shu yerda yashaganlar. Jarqo'ton uch qismdan iborat . Uning arki 3ga. maydonni egallagan.Arkda hukmdorning qarargogi joylashgan. Saroyda ko'p oddiy xonalar bo'lib, saroy maydonida 20kv.m supa joylashgan. Shaharning janubida 20ga. maydonni egallagan shahar qabristoni topilgan. Jarqo'tonda otashparastlik ibodatxonasi topildi. Ibodatxona ikki qismdan - muqaddas ziyoratxona va xo'jalik qismlaridan iborat bo'lgan. Jarqo'ton O'rta Osiyodagi ilk shahar-davlat hisoblanadi. U hozirgi Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Oqqo'rg'on qishlog'i Kattabog' MFY hududiga to'g'ri keladi. Men istiqomat qiladigan joyda joylashgan ushbu yodgorliklarni o'qib o'rganib o'zim tug'ilib o'sgan moddiy yodgorliklarga qiziqib qoldim. Masalan "Cho'lpon ota" tarixi. Cho'lpon ota qabristoni bundan 500 yillar oldin bunyod etilgan .Bu qadamjo, asl ismi Said Akramxon bo'lgan inson nomiga qo'yilgan. Said Akramxon „Cho'lpon " nomli diniy asarini birinchilardan bo'lib o'qib tugatganligi uchun ,aynan shu nom bilan mashhur bo'lgan. Ushbu shaxs payg'ambarimiz avlodlaridan Imom Husaynning shajarasiga tutashgan. U inson hayotida juda ajoyib mo'jizalar ham uchrab turgan, aytishlaricha qish faslida ayni qor yog'gan, havo juda sovuq bo'lgan vaqtda farzandlari Otajon juda sovuq qotdik qornimiz och -deydi. Avliyo qorni bir joyga to'plagancha fотиha surasini o'qib uni yoqadi va shunday deydi - Farzandlarim ushbu olov , siz qachonki biz isidik olov o'chsin deganingizda o'chadi - deya ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham aytganidek olov o'chmagan ekan. Oradan vaqt o'tib Cho'lpon ota vafot etadi CHO'LPONOTA vafotidan keyin vasiyatiga binoan o'zi tug'ilib o'sgan Dehqonoboddan bir tuyaga ortib tuya tuxtagan joyga dafn qilishini aytgan tuya „Kattabog'" mahallasi hududida E..Berdiyev J/X „Oqqo'rg'on qishlog'i „Navbog" mahallasida to'xtagan.Farzandlari shu yerni bir kechada gumbaz qilib ko'targan. Farzandlari otasi yashagan joylarni katta bog' qilishga kirishdi , lekin tepalikka suv chiqarish amrimahol bo'lgan. Shunda otasi farzandining tushiga kirib - qayg'urmanglar belni urgan joyingizdan suv chiqadi - deb aytdi . Aytganidek ertasiga suv chiqqanligi aytiladi. Qadimda katta bog' bo'lgan ushbu hudud hozirda qabristonga aylangan.Qariyalarning aytishicha 2002-yilda bu qabriston hudud aholisi tomonidan ikki gumbaz qilib qayta ta'mirlangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 7000 dan ortiq yodgorlik , shu jumladan , 2500 ta me'moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olinganligi ma'lum.

O'tmishimizni avaylash, tarixiy obidalarni e'zozlash, asori- atiqalarni , qolaversa, xalqimizning buyuk o'tmishi, yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bog'liqdir. Jumladan, mening ona yurtim Surxondaryo viloyatidagi "Cho'lpon ota" qabristoni ham xalqimizning o'tmishi hisoblanadi va shu hisobda memoriy yodgorlik hamdir. Bu xususiyatlar xalqimizning milliy qadriyati bo'lib, azaldan ularning qon - qoniga singib ketgan.

Men bu maqolani yozishdan maqsadim o'zim tarix fakulteti talabasi bo'lganligim, hamda tarixga bulgan qiziqishim yuqoriligi sabab bo'ldi. Ushbu yodgorlik o'zim istiqomat qiladigan joyda joylashgan tarixiy obida hisoblanadi. Maqolam tufayli "Cho'lpon ota" majmuasi yanada mashxurroq bo'lishi hamda chet davlatdan keladigan turistlar oqimiga ushbu joy haqida qiziqish uygotishdir. Hamda ichki turizm va umumiy turizmni rivojlanishiga o'z hissamni qo'shib, yangi O'zbekistonda yangicha fikrlar va g'oyalar egasiga aylanmoqchiman. Bu maqolani yozishda univerisitetimizdagi professor va o'qituvchilarning katta yordam berishdi. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi,shu hisobda univerisitetimizda ham keng ko'lamli ishlar amalga oshmoqda ustozlarimiz ko'magida biz talaba yoshlarning ham tarixga qiziqishimiz yanada ortadi boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq bu bevosita tarixni anglashga borib taqaladi. Men ushbu maqolam orqali qisqacha bo'lsa ham ma'lumot olganingizdan hursandman.

Adabiyotlar:

1. Karimov. I. A "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" 1998-yil.
2. Asqarov. A. "Eng qadimgi shahar" 2001-yil.
3. Sagdullayev. A. S. "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi" 2004-yil.
4. Egamberdiyeva. A. N. "Arxeologiya" 2011- yil.